



UDK: 070:316.77:159.9

*Yulduz ZOHIDOVA,*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, PhD*

*E-mail: yulduz.zohidova83@mail.ru,*

*Dotsent, PhD Q.Qayumov taqrizi asosida*

## THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE TV PRESIDENT ON THE AUDIENCE (BASED ON SOCIOLOGICAL SURVEY MATERIALS)

Annotation

This scientific article analyzes the communicative competence of television presenters in contemporary Uzbek television and its influence on audience consciousness and psychological perception, based on the results of a sociological study. The research examines key communicative indicators of a TV presenter's professional activity, including speech culture, voice timbre, intonation, emotional expressiveness, credibility, professional confidence, and the overall psychological impact of the on-screen image. The results substantiate the priority role of communicative competence in the professional activity of a television presenter.

**Key words:** TV Anchor, communicative competence, speech culture, audience, psychological impact, television, media communication.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ТЕЛЕВЕДУЩЕГО НА АУДИТОРИЮ (НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ)

Аннотация

В данной научной статье на основе результатов социологического исследования анализируется коммуникативная компетенция телевизионных ведущих современного узбекского телевидения и её влияние на сознание и психологическое восприятие аудитории. В рамках исследования изучены основные коммуникативные показатели деятельности телеведущего, такие как культура речи, тембр голоса, интонация, эмоциональная экспрессия, убедительность, профессиональная уверенность и общий психологический эффект экранного образа. Итоги анализа научно обосновывают приоритетное значение коммуникативной компетенции в профессиональной деятельности телеведущего.

**Ключевые слова:** Телеведущий, коммуникативная компетенция, культура речи, аудитория, психологическое воздействие, телевидение, медиакommunikация.

## TELEBOSHLOVCHI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINING AUDITORIYAGA PSIXOLOGIK TA'SIRI (SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA MATERIALLARI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy o'zbek televideniyesida faoliyat olib borayotgan teleboshlovchilarning kommunikativ kompetensiyasi hamda ularning auditoriya ongi va psixologik qabul qilinishiga ta'siri sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida teleboshlovchining nutq madaniyati, ovoz tembri, intonatsiya, emotsional ekspressiya, ishonchlilik, professional qat'iyat va ekrandagi psixologik ta'sir kabi asosiy kommunikativ ko'rsatkichlar o'rganildi. Tahlil natijalari teleboshlovchi faoliyatida kommunikativ kompetensiyaning ustuvor ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** Teleboshlovchi, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, auditoriya, psixologik ta'sir, televideniye, mediakommunikatsiya.

**Kirish.** Global axborot makonida televideniye OAVning eng ta'sirchan va keng qamrovli vositalaridan biri hisoblanadi. Televizion muloqot nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaning dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi. Bu jarayonda teleboshlovchining obrazi, nutq madaniyati va kommunikativ mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Teleboshlovchi ekran orqali auditoriya bilan bevosita muloqot qiluvchi asosiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Uning ovoz tembri, intonatsiyasi, nutq ravonligi, imo-ishorasi, qo'l harakatlari, shuningdek, ruhiy barqarorligi tomoshabin tomonidan qabul qilinayotgan axborotning samaradorligini belgilaydi. Shu bois teleboshlovchining kommunikativ kompetensiyasi nafaqat professional ko'nikma, balki ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ham qaralishi lozim. O'zbekiston televideniyesida teleboshlovchilik instituti yillar davomida evolyusion rivojlanib kelmoqda. Avvallari teleboshlovchidan asosan matni to'g'ri va adabiy tilda o'qish talab etilgan bo'lsa, bugungi kunda undan yuqori darajadagi kommunikativ faollik,

emotsional moslashuvchanlik va auditoriya bilan aloqa o'rnatish qobiliyati talab etilyapti. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ommaviy axborot vositalarida xolislik va qonun ustuvorligini ta'minlash, professional bilim va mahoratni oshirib borish, axborot tarqatishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, aholi o'rtasida axborot, bahs va muloqot madaniyatini shakllashtirish, jamiyatimizdagi turli illatlar, korrupsiya balosiga qarshi kurashish kabi dolzarb vazifalar bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur"[1], bu esa jurnalistlarning kommunikatsiya ko'nikmalari hamda auditoriya bilan psixologik muloqot qobiliyatini yanada mustahkamlashni talab qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, teleboshlovchi kommunikativ kompetensiyasini auditoriya bahosi asosida empirik jihatdan o'rganish televideniye nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy natijalarni beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Teleboshlovchi faoliyati, imiji, kommunikativ kompetensiyasi, obrazi masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan.

Xususan, A. Dedov teledasturlar tipologiyasi va boshlovchining texnologik funksiyalarini tahlil qilib, uning eifirdagi rolini janr xususiyatlari bilan bog'laydi[2]. V. Labutinaning "Языковая компетенция современного тележурналиста" o'quv qo'llanmasida diktor va boshlovchining nutq madaniyati, ovoz texnikasi va efir etikasi masalalari yoritilgan[3]. L. Melnikova telejurnalist ijodi va shaxsiy imidjning auditoriya qabul qilish jarayonidagi ahamiyatini asoslab beradi[4]. I. Zimnyaya "Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования" nomli ilmiy maqolasida kompetensiyani shaxsning faoliyatga tayyorligini ta'minlovchi integrativ omil sifatida belgilaydi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik "bilimlarning amaliyotda qo'llanilishiga qodirlik" bilan o'lchanadi[5].

Televizion jurnalistika nazariyasi doirasida teleboshlovchining nutqiy faoliyati va professionalizmi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, G. Kuznetsov "Семь профессиональных граней журналиста ТВ" asarida telejurnalistning kasbiy mahoratini axborotni tanlash, tahlil qilish va auditoriyaga ta'sirchan yetkazish qobiliyati bilan bog'laydi[6]. S. Muratov "Телевизионное общение в кадре и за кадром" asarida televideniye jamiyat ma'naviy muhitini shakllantiruvchi vosita sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, ushbu OAV auditoriyaga ekrandan muntazam yangraydigan nutq hamda boshlovchilarning muloqot va xulq-atvor madaniyati orqal ta'sir ko'rsatadi [7].

Yu. Zohidovanning "The Types and Components of Image of The Tv Anchor In the Screen System" ilmiy maqolasida telekommunikatorning asosiy kompetensiyalari, efir olib borish madaniyati masalalari yoritilgan, teleboshlovchi imijining turlari funksional va janr xususiyatlariga ko'ra tasniflangan. Jumladan, axborot dasturlari boshlovchisi, tok-shou boshlovchisi va tahliliy dastur boshlovchisi imiji o'rtasidagi farqlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan[8]. Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, teleboshlovchining kommunikativ kompetentligi uning professional mahorati va ijtimoiy ta'sirchanligining asosiy omili hisoblanadi. Biroq mazkur muammoni milliy mediamakon sharoitida kompleks o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologik asosini kommunikatsiya nazariyasi, OAV psixologiyasi, telejurnalistika nazariyasi hamda kommunikativ kompetensiya konsepsiyalari tashkil etdi. Nazariy manba sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning telejurnalistika, mediapsixologiya va nutq madaniyatiga oid ilmiy ishlari o'rganildi. Empirik tadqiqot usuli sifatida Google Docs platformasi orqali o'tkazilgan

onlayn sotsiologik so'rovnoma qo'llanildi. Ushbu so'rovnomada turli yosh, millat, jins va ma'lumot darajasiga ega respondentlar ishtirok etdi. Tadqiqot reprezentativ tanlama asosida amalga oshirilib, natijalar 100 foizli nisbiy ko'rsatkichlarda tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlil elementlari, statistik umumlashtirish kabi metodlardan ham foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Teleboshlovchi kommunikativ kompetensiyasi masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda qisman yoritilgan bo'lsa-da, Yangi O'zbekiston davrida uning tadrjiiy rivoji mustaqil, tizimli va kompleks tadqiqot sifatida to'liq ishlab chiqilmagan. "Kompetensiya" atamasi lotincha competens - "layoqatli, qobil" ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, u esa o'z navbatida competere fe'lidan yasalgan. Bu so'z com - "birgalikda" va petere - "intilish, ergashish" ma'nolarini anglatuvchi qismlardan tashkil topgan. "Kompetensiya" atamasining psixologiya, psixo-pedagogika, keyinchalik inson resurslarini boshqarish sohalariga kirib kelishi Xomskiy nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir[9].

Teleboshlovchilarning kommunikativ kompetensiyasini aniqlash maqsadida Google Docs platformasi orqali ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. Unda O'zbekistonning turli hududlaridan 300 ga yaqin respondent ishtirok etdi[10]. Olingan natijalar teleboshlovchi imiji, ishonch omili va kommunikativ mahoratning auditoriya ongidagi qabul qilinishi xususiyatlarini tahlil qilish imkonini berdi. Respondentlarning 63,1 foizi ayollar, 36,9 foizi erkaklar bo'lib, yosh tarkibi 14 yoshdan 60 yoshdan yuqori toifalarni qamrab oldi. Yosh tarkibiga ko'ra, ishtirokchilarning 3 foizi 14-18 yosh, 28,2 foizi 19-25 yosh, 26,5 foizi 26-35 yosh, 28,9 foizi 36 - 45 yosh, 11,1 foizi 46-60 yosh, 4,2 foizi esa 60 yoshdan yuqori yosh toifasiga mansub ekanligi aniqlandi(1 va 2-diagrammaga qarang). So'rovnomada keltirilgan savollar teleboshlovchining qator kasbiy va shaxsiy parametrlarini qamrab olgan: eifirdagi o'zini tutishi (jest, mimika, harakatlar), emosional ekspressiyasi, ishonch uyg'otish qobiliyati, professional qat'iyati (avtoriteti) hamda umumiy psixologik ta'sir darajasi. Javoblar variantida turli janr va yo'nalishdagi teleko'rsatuv boshlovchilari – Dildora Rustamova, Jamshid Umrzoqov, Jahongir Olimov, Sherzodxon Qudratxo'ja, Laziza Nozimxonova, Xayrulla Nuriddin, Iroda Nosirova, Shahnoza Usmonova, Nilufar Sotiboldieva, Tursunoy Alimova, Nodir Muhammadiy, Laylo Rustamova, Baxtiyor To'raxonov, Amirxon Umarov, Tolibjon Isroilov, Yulduz Fayziy, Nozima Vohidova, Xamza Jumaev, Nilufar Umrzokova, Surayyo Mansur, Anvar Azimovlar keltirilgan.

1-diagramma. Yoshingiz; 2-diagramma. Millatingiz.




Muloqot mahorati (ovoz tembri, nutq ravonligi, intonatsiya) bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Dildora Rustamova (47%) hissasiga to'g'ri kelgan. Keyingi o'rinni Jamshid Umrzoqov (31%) egallagan. Bu natija verbal

kompetensiya teleboshlovchi imijining asosiy tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Demak, auditoriya uchun nutq madaniyati va ovoz estetikasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda(5-diagrammaga qarang).



Professional qat'iyat (avtoritet) mezonini bo'yicha Sherzodxon Quدراتxo'ja (32%) va Xayrulla Nuriddinov (31%) yuqori baholangan. Bu holat axborot va tahliliy janrlarda ishonchli pozitsiya, intellektual salohiyat va qat'iy nutq uslubi auditoriya tomonidan yuqori qadrlanishini anglatadi. Avtoritet omili teleboshlovchining ijtimoiy kommunikator sifatidagi mavqeini belgilaydi(6-diagrammaga qarang).

Samimiylik ko'rsatkichida Dildora Rustamova (36%) va Jamshid Umrzoqov (26%) yetakchilik qilgan. Bu natija emotsional yaqinlik va auditoriya bilan psixologik aloqa o'rnatish zamonaviy televideniya muhim omil ekanini

5-diagramma. Muloqot mahorati (ovoz tembri, nutqning ravonligi, intonatsiya) bo'yicha professional deb hisoblaydigan boshlovchiningizni tanlang




6-diagramma. Efirda professional qat'iyat (avtoritet) hissini beradigan boshlovchi kim?




7-diagramma. Qaysi boshlovchi efirdagi samimiyligi bilan sizda ijobiy taassurot qoldira oladi?

8-diagramma. Tashqi ko'rinishi va ekrandagi muloqot uslubi bilan qaysi boshlovchi tubdan ajralib turadi?




Ishonchlilik mezonini va psixologik ta'sir bo'yicha o'tkazilgan diagramma natijalari o'zaro uyg'unlikni namoyon etdi. Birinchi holatda Dildora Rustamova (24,4%) va Jamshid Umrzoqov (21,6%) yetakchilik qilgan bo'lsa, ikkinchi holatda Jamshid Umrzoqov (33%) va Dildora Rustamova (30%) yuqori natija qayd etgan(9 va 10-diagrammaga qarang). Bu natijalar teleboshlovchi imijida ishonch omili, auditoriya e'tiborni ushlab turish, ochiqlik markaziy o'rin tutishini tasdiqlaydi.

9-diagramma. Ishonchlilik nuqtai nazaridan qaysi boshlovchi Sizda kuchli ruhiy ishonch uyg'otadi?



10-diagramma. Umumiy psixologik ta'sir (e'tiborni ushlab turish, ochiqlik) bo'yicha kuchli deb hisoblagan boshlovchiningizni tanlang.



**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari teleboshlovchi kommunikativ kompetensiyasining auditoriyaga psixologik ta'siri yuqori darajada ekanini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Aniqlanishicha, nutq madaniyati, samimiylilik va emosional barqarorlik teleboshlovchi faoliyatida etakchi o'rin tutadi. Aytish mumkinki, teleboshlovchi obrazi auditoriya ishonchini qozonishda strategik ahamiyatga ega. Shu bois telejurnalistika ta'limi jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shuningdek, tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

birinchidan, teleboshlovchi zamonaviy media makonda ijtimoiy kommunikator sifatida faoliyat yuritadi va jamoatchilik fikri shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

ikkinchidan, kommunikativ kompetençiya (nutq madaniyati, empatiya, samimiylilik) va psixologik barqarorlik teleboshlovchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy omildir.

uchinchidan, auditoriya ishonchi teleboshlovchi imidjining markaziy komponenti hisoblanadi, shuningdek, vizual obraz va ekran madaniyati verbal mahorat bilan uyg'un holda qabul qilinadi.

Tavsiya sifatida teleboshlovchilar uchun maxsus kommunikativ treninglar tashkil etish, nutq madaniyati va mediapsixologiyaga oid o'quv dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/27/oav-tabrik/>
2. Дедов А. Технологии телевизионной журналистики. - Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2017. – С. 51.
3. Лабутина В. Языковая компетенция современного тележурналиста. Учебное пособие. Самара: Самарский университет, 2016. – С. 25.
4. Мелникова Л. Творчество телевизионного журналиста: теория, методология, практика. Минск: БГУ, 2018. – С. 43.
5. Зимняя И. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
6. Кузнецов Г. Семь профессиональных граней журналиста ТВ. – М.: ИПК работников телевидения и радиовещания, 2001.
7. Муратов С. Телевизионное общение в кадре и за кадром. – 2-е изд. – М.: Аспект Пресс, 2007.
8. Zohidova Y. The Types and Components of Image of The Tv Anchor In the Screen System. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2025, 7(04), 8–16. <https://doi.org/10.37547/tajirr/Volume07Issue04-02>
9. Lesenciuc, A., & Nagy, D. (2009). The Communicative Competence: A New Approach. Review of the Air Force Academy, Management and Socio-Humanities, 16(2), 37–43.
10. Ijtimoiy so'rovnomma. 2026-yil 7-fevralda foydalanildi. <https://docs.google.com/forms/d/1woxTYI-EQspdTci>